

Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar- avgust oylari uchun

- I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Toshkent shahri sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025-yilning 1 sentabr holatiga ko'ra Toshkent shahrida 11 012 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 703 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 14,6 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 922 tasi (7,9 %) mebel ishlab chiqarishga, 878 tasi (7,5 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall va buyumlar ishlab chiqarishga, 963 tasi (8,2 %) kiyim ishlab chiqarishga va 728 tasi (6,2 %) rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1 sentabr holatiga ko'ra



II. Toshkent shahri sanoatining asosiy

ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahri korxonalari tomonidan 126,9 trln so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Toshkent shahar	126 860,3	106,5
<i>viloyatlar:</i>		
Uchtepa tumani	8 972,9	131,4
Bektemir tumani	13 677,7	109,4
Yunusobod tumani	4 892,2	107,7
Mirzo Ulug'bek tumani	7 513,9	100,4
Mirobod tumani	6 714,2	105,2
Shayxontohur tumani	6 451,0	106,1
Olmazor tumani	8 575,9	103,8
Sirg'ali tumani	12 242,9	103,7
Yakkasaroy tumani	5 182,3	105,8
Yashnobod tumani	21 957,4	104,1
Yangihayot tumani	8 080,2	101,4
Chilonzor tumani	10 184,4	103,8

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir tumanida (204 132,9 ming so'm), Sirg'ali tumanida (70 132,6 ming so'm), Yashnobod tumanida (70 433,7 ming so'm), Mirobod tumanida (43 370,3 ming so'm) o'rtacha Toshkent shahri darajasi ko'rsatkichidan (40 543,5 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Uchtepa tumanida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 130,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, Shayxontohur tumanida (104,9 %), Yunusobod tumanida (105,3 %), Mirobod tumanida (103,8 %) qayd etilib respublika ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi


yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-avgust oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 106,0 trln so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (83,6 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 14,4 trln so'm (11,3 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 5,4 trln so'm (4,3 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 1,1 trln so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025-yilning yanvar-avgust oylarida





III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida 6 526,1 tonna Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar (2024-yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan 25,1 % ga kupaygan), 20 138,5 tonna paxtadan yigirilgan ip (1,3 % ga kupaygan), 64 751,8 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (98,3 % ga kupaygan) hamda 94 483,3 ming litr pivo (22,7 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust *	2024-yil yanvar-avgust *	2025-yil yanvar-avgust
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	91,0	49,3	64,8
Paxtadan yigirilgan ip, ming tonna.	22,9	25,1	20,1
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar — tonna.	12 928,5	12 400,7	28 716,8
Pivo – mln litr	70,4	77,0	94,5
Sovutgich va muzlatgichlar — ming dona	537,2	295,4	282,0
Tamaki mahsulotlari, mln. dona	1 201,2	2 353,1	2 060,1
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, tonna	11 436,0	10 748,0	10 323,5

**2023-2024-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 26,5 % (2024-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 111,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,4 % (2024-yilning yanvar- avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 3,3% ni (2024-yilning yanvar- avgust oylarida 4,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 20,0 % (20,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 32,8 % (33,9 %), quyi texnologiyali 43,8 % (40,6 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025-yilning yanvar-avgust oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 101,2 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 84,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust *	2024-yil yanvar-avgust *	2025-yil yanvar-avgust
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	2 559,1	2 297,1	2 323,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	6 991,6	6 024,3	5 102,1

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 146,0% ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 104,0% ga o'sish kuzatildi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash 98,4 %ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-avgust *	2024-yil yanvar-avgust *	2025-yil yanvar-avgust
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	121,9	247,6	257,5
Xavfli bo'lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy, tonna	197,9	163,4	116,4
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta'minlash, mlrd. so'm	220,3	410,1	403,5

**2024-2025-yillarning yanvar-avgust oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 48,3 trln so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 33,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-avgust oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 38,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Toshkent shahri iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** — Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** — Ishlab chiqarish sanoati
- D** — Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** — Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
G. O'g'ynbayeva
71 203-80-03 (3510)

Manzil:

